QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03./2025.27.12.Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLAYEVA NARGIZA ROXATALIYEVNA

“BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI KREATIV FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH”
(Xalqaro baholash tizimi fani misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya
AVTOREFERATI

Qo‘qon – 2026

UDK : *378.091.321*

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Abdullayeva Nargiza Roxataliyevna
Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kreativ faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish(Xalqaro baholash tizimi fani misolida).....5

Абдуллаева Наргиза Рохаталиевна
Совершенствование методики подготовки будущих учителей начальных классов к творческой деятельности (на примере учебной дисциплины «Международная система оценивания»).....27

Abdullaeva Nargiza Rokhatalievna
Improving the Methodology for Preparing Future Primary School Teachers for Creative Activity (A Case Study of the Course “International Assessment System”).....57

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published work..... 65

.

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03./2025.27.12.Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLAYEVA NARGIZA ROXATALIYEVNA

“BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI KREATIV FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH”

(Xalqaro baholash tizimi fani misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya
AVTOREFERATI

Qo‘qon – 2026

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2025.4.PhD/Ped6983 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qo‘qon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.kokandsu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Baratbayev Bekzod Batirovich**
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Artikova Muxayyoxon Botiraliyevna**
Pedagogika fanlari doktori, professor

Toshibekova Munojat Xoshimovna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), professor

Yetakchi tashkilot: **Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qo‘qon davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03./2025.27.12.Ped.34.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "14" noyabr kuni soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tdi. (Manzil: 150700, Qo‘qon shahri, Turon ko‘chasi, 23-uy. Tel.: (+998) 73-542-38-38; faks: (+998)73-542-11-43; e-mail: info@kokandsu.uz, kokandsu.edu@gmail.com.)

Dissertatsiya bilan Qo‘qon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 79 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150700, Qo‘qon shahri, Turon ko‘chasi, 23-uy. Tel.: (+998) 73-542-38-38)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "02" 11 kuni tarqatildi.
(2026-yil "31" 10 dagi 43 - raqamli reestr bayonnomasi).

N.Sh.Erkaboyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,p.f.d., professor

L.R.Xayitov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, p.f.d.(DSc), dotsent

Z.A.Xolmatova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, p.f.d.(DSc), professor

Scanned with CamScanner

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida rivojlangan mamlakatlarda fuqarolarning ta’lim olishga bo‘lgan huquqlarini ta’minlash, ta’lim dasturlarining sifat va samaradorligini ta’minlash maqsadida yirik davlat dasturlari, ilmiy-tadqiqot loyihalari amalga oshirilmoqda. Ta’lim masalalariga bag‘ishlangan xalqaro tashkilotlar va rivojlangan mamlakatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha mo‘ljallangan ta’lim konsepsiyasida boshlang‘ich ta’lim “ta’lim taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat” sifatida e’tirof etilib, sifatli ta’lim berish, o‘quvchilarga kreativlik va integrativlik asosida ta’lim berish texnologiyalarini rivojlantirishning samarali usullaridan keng foydalanishga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Ilg‘or ta’lim tizimlarining tahlillari shuni ko‘rsatadiki, uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich ta’limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, uni tashkil etish shart-sharoitlari va metodlarini zamonaviy talablar asosida transformatsiya qilish, XXI asr ko‘nikmalaridan biri sifatida e’tirof etiladigan kreativ fikrlash – yangi yondashuvlarni qo‘llash, innovatsion yechimlarni izlab topish, yangiliklarga bo‘lgan qiziqishlarni talabalarda shakllantirish yanada dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Dunyoda ta’lim sifatini baholash tizimining rivojlanish tendentsiyalari jadallashtirish, xalqaro baholash dasturi ishtirokchi davlatlar qamrov doirasini kengaytirish, baholash metodologiyasi hamda natijalarining reprezentativligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda innovatsion ta’lim muhitini yaratishga, shuningdek, PIRLS, PISA, TALIS, TIMSS, EGMA, EGRA kabi xalqaro ta’lim standarti talablarining joriy qilinishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Baholash dasturlarini turli davlatlar milliy ta’lim tizimiga joriy etish masalalarini baholash dasturi natijalari bilan uzviylikda ilmiy tahlil qilish, baholash dasturi kontseptsiyasiga muvofiq talabalarning savodxonlik ko‘nikmalarini, shuningdek kompyuter, xorijiy tillarni bilish darajasini oshirishga doir ilmiy izlanishlar salmog‘i ortmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishi milliy ta’lim tizimi salohiyatini oshirish imkoniyati sifatida qaralmoqda. Hozirgi kunda respublikamizda mazkur baholash dasturiga tayyorgarlik ishlarining tashkiliy-metodik bosqichi samarali amalga oshirilmoqda. Respublikamiz ta’lim tizimida “2030 yilga kelib “Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash” dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish” xalq ta’limi tizimining uzoq muddatli rivojlanishining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Uzluksiz ta’lim tizimining poydevori bo‘lgan boshlang‘ich ta’limda bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarning o‘quv-bilish kompetentsiyalarini mustaqil ishlarni tashkil etish asosida shakllantirish ta’lim samaradorligini oshirishdagi muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Talabalarning ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, kreativ va mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, zamonaviy ijtimoiy ko‘nikmalar (mustaqil ishlash qobiliyati, loyihalash, o‘zini-o‘zi tahlil qilish, iqtidorini namoyon qilish, olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olishi) ni rivojlantirish, tayanch kompetentsiya mezonlaridan biri bo‘lgan “Hayot davomida ta’lim olish”ga yo‘naltirilgan innovatsion

ta’lim muhitini yaratish muammoning ilmiy jamoatchilik tomonidan chuqur tadqiq qilinishini taqozo etadi. Bugungi kunda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llash, motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o‘z-o‘zini baholash kabi indikatorlarni tizimga samarali tatbiq etishning nazariy asoslari va amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish bilan bog‘liq fundamental ilmiy tadqiqotlarga zarurat ortmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni, 2020 yil 27 fevraldagi PQ 4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil, 6-oktabrdagi PQ-4851-sonli “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori, hamda mazkur faoliyat bilan bog‘liq boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda ushbu dissertatsiya tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti resrublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda talabalarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini zamon talablariga moslashtirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar vositasida ularda xalqaro baholash tadqiqotlariga mos keluvchi ko‘nikmalarni rivojlantirish, bu borada metodik va didaktik ta’minotni takomillashtirish muammolari mahalliy olimlardan N.Abdurahmonova, G.Anorkulova, M.Ahmedov, N.G.Alovutdinova, N.U.Bikboyeva, A.Ya.Bobomurodova, M.E.Jumayev, E.E.Jumayev, T.U.Ziyadova, X.Ibragimov, P.Ibragimov, O.Ismailov, N.Muslimov, U.A.Masharipova, Sh.U.Nurullayeva, A.Q.Nisanbayeva, O.Oxunjonova, D.Ro‘ziyeva, M.J.Saidova, A.Teshaboyev, Z.G.Tadjiyeva, M.Usmonboyeva, E.Ya.Yangiboyeva, N.A.Qosimova, N.A.Hamedova, M.Z.Hamdamova, A.R.Hamroyev kabilarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Shuningdek, umumiy o‘rta va oliy ta’lim tizimida ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlashlarini, kompetensiyalarini, qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik, metodik jihatlari G.N.Ibragimov, T.T.Kaziyeva, D.D.Murodova, R.Yu.Musinova, Sh.X.Pozilova, M.A.Tilakovalar ta’lim jarayonining turli bosqichlarida talabalarning ijodiy tasavvurini rivojlantirish, ijodiy fikrlashga o‘rgatish masalalari bo‘yicha turli davrlarda professor M.Abdullayeva, B.S.Abdullayeva, R.Adizova, Z.T.Nishanova,

M.Qullaxmetova, M.Saidov, Sh.J.Yusupova, Sh.S.Sharipov, Ch.T.Shokirovalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida talabalarning kreativ tafakkurini rivojlantirish S.S.Bakulevskaya, I.F.Borodina, M.S.Ryabova, T.A.Sidorchuk, G.V.Terekova, N.V.Tolpekina, L.A.Ustinova-Baranova, K.Ya.Xabibullin; maktab o‘quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish A.D.Novikova, N.Yu.Melnikova, N.N.Melenteva, J.A.Kolisnichenko, L.P.Matveyev, G.N.Germanov, M.Sholixlarning tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.

Kreativ tafakkurni shakllantirish muammolari bo‘yicha xorijda J.Gilford, R.Sternberg, E.P.Torrance shuningdek, P. Syao Sze, Van Lin, Chan Duk Nyan, F.Lyular tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Masalan, TIMSS va PIRLS natijalari ham talabalarning faqat nazariy bilim emas, balki analitik va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini kreativ tafakkurni rivojlantirish metodikasini zamonaviy ta’lim dasturlari asosida takomillashtirish masalalari yetarlicha o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qo‘qon davlat universiteti ilmiy ishlari rejasining FZ-214/0001278-sonli “Ta’lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanishning amaliy mexanizmlari va texnologiyalari” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish yuzasidan ilmiy uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning vazifalari:

xalqaro baholash dasturlari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirishning tarkibiy komponentlarini o‘rganish va tahlil qilish;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirishning didaktik tamoyillar asosida metodik yondashuvlarini takomillashtirish;

xalqaro baholash dasturlari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatni rivojlantirishning metodik modelini takomillashtirish;

xalqaro baholash dasturlari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirishga oid metodik ta’minotini takomillashtirish.

Tadqiqotning oby’ekti sifatida xalqaro baholash dasturlari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba sinov ishlariga Qo‘qon davlat universiteti, Andijon davlat pedagogika instituti, Navoiy davlat universitetlarining 743 nafar boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari jalb etildi.

Tadqiqot predmetini xalqaro baholash dasturlari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga doir falsafiy, psixologik va pedagogik adabiyotlardagi mavzuga doir ma’lumotlarni qiyosiy o‘rganish hamda tahlil qilish; davlat ta’lim standarti, o‘quv rejalari va dasturlari, darslik va o‘quv-

metodik qo‘llanmalarni o‘rganish; ijtimoiy-pedagogik (kuzatish, suhbat, anketa, so‘rov, test); pedagogik tajriba-sinov; natijalarni matematik-statistik qayta ishlash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xalqaro baholash dasturlari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari (intelektual, motivatsion, tahliliy, taqqoslovchi ijodiy-amaliy faoliyat) aniqlashtirildi, tizimlashtirildi va tahlil qilindi;

“Xalqaro baholash tizimi” fanini o‘qitish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatni rivojlantirish metodikasi ta’limning didaktik tamoyillari (ilmiylik, tarbiyaviylik, ko‘rgazmalilik, faoliyatga yo‘naltirilganlik, muammolilik, ijodiy izlanish, individuallik, refleksiya) asosida shaxsga yo‘naltirilgan, muammoli va kreativ ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyihalash, guruhlarda ishlash, didaktik o‘yin, SCAMPER, Brainwritting, Maker education va baxs munozara metodlarini uyg‘unlashtirish orqali takomillashtirildi;

xalqaro baholash dasturlari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, integrativ va raqamli komponentlarni o‘z ichiga olgan metodik modeli asosida motivatsion, intellektual, pedagogik va individuallashtirilgan yondoshuvlarni amalga oshirish hamda ijobiy ta’lim muhitini ustivorlashtirishning amaliy mexanizmi takomillashtirildi;

xalqaro baholash dasturlari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik vositalar va metodik ta’minot, jumladan, mustaqil ishlashga mo‘ljallangan PIRlS va TIMMS topshiriqlarini o‘z ichiga olgan mobil ilova mazmunan boyitildi va takomillashtirildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o‘z aksini topgan:

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatini rivojlantirishning metodik asoslari oliy ta’lim muassasalarining o‘quv rejasidagi “Xalqaro baholash tizimi” fani bo‘yicha ma’ruza, amaliy va semenar mashg‘ulotlarida hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida foydalanish uchun ishlab chiqildi;

boshlang’ich ta’lim yo’nalishi talabalari uchun kreativ faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan “Xalqaro baholash tizimi” nomli darslik ishlab chiqildi va ta’lim jarayoniga joriy etildi;

pedagogik texnologiyalardan foydalanib bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish bo‘yicha “Xalqaro baholash tizimi” fanidan nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va tajriba-sinov jarayonida amaliyotga joriy etildi;

“Xalqaro baholash tizimi” fanining mazmunini takomillashtirish va raqamlashtirish asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan, xalqaro baholash dasturlariga mos topshiriqlarni qamrab olgan mobil ilova yaratildi va ta’lim amaliyotiga joriy etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv va usullarning ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari natijalarining matematik-statistik

usullar asosida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlar nazariy jihatdan asoslab berildi. “Xalqaro baholash tizimi” fanini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish orqali bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kreativligini rivojlantirish mezonlari va uning o‘sish darajasini belgilovchi ko‘rsatkichlar taklif etildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatni rivojlantirish metodikasi boyitildi, kreativ faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv savollari, dasturiy ta’minot va ochiq ta’lim resurslari, shuningdek didaktik materiallar ishlab chiqildi hamda ularni oliy ta’lim muassasalarida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xalqaro baholash dasturlari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish yuzasidan olingan natijalar asosida:

xalqaro baholash dasturlari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatni rivojlantirishning tarkibiy komponentlari (intelektual, motivatsion, tahliliy, taqqoslovchi ijodiy-amaliy faoliyat) aniqlashtirilib, “Xalqaro baholash tizimi” nomli darslik mazmuniga singdirildi (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 16-apreldagi №273205854-son buyrug‘i asosida № 2580-3769-e073-c999-5d31-7606-6343 nashr ruhsatnomasi). Natijada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari aniqlashtirildi;

“Xalqaro baholash tizimi” fanini o‘qitish jarayonida talabalar kreativ faoliyatni rivojlantirish metodikasini SCAMPER, Brainwritting, Maker education, ta’lim texnologiyalarini ta’lim mazmuniga moslashtirish, muammoli ta’lim hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim metodlari asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar “Xalqaro baholash tizimi” nomli darslik mazmuniga singdirildi (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 16-apreldagi №273205854-son buyrug‘i asosida № 2580-3769-e073-c999-5d31-7606-6343 nashr ruhsatnomasi). Natijada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatni rivojlantirishda didaktik tamoyillarning uzviyligi ta’minlandi;

ta’lim jarayonida talabalarda kreativ faoliyatni rivojlantirishning metodik modeli (maqsadli-kompetensiyaviy, psixologik-pedagogik shart-sharoitlar, motivatsion, faollik, ijodiy faoliyat, tahlil va refleksiya komponentlari) asosida mustaqil va ijodiy ishlash, yangi yechimlar taklif qilish, g‘oya va taxminlarni jamlash hamda ochiq fikrlashni rag‘batlantirishga doir taklif va tavsiyalardan Qo‘qon davlat pedagogika instituti 2022-2023 yillarda bajarilgan “RoboGirls” loyihasi dasturidagi kam ta’minlangan oilalar qizlarining ilmiy-texnik dunyoqarashini kengaytirish bo‘limini yoritishda metodik manba sifatida foydalanildi (Qo‘qon davlat pedagogika instituti ning 2024-yil 6-martdagi 384/04-sonli ma’lumotnomasi). Natijada talabalarda kreativ faoliyatni rivojlantirishning metodik modeli takomillashtirildi;

talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirishning didaktik modeliga oid tavsiyalari oliy ta’lim muassasalarida boshlang‘ich ta’lim fanlari o‘quv reja va dasturlarini tayyorlashda va 2022-2023 yillarda amalga oshirilgan Britaniya Kengashining “Higher Education for Employability, Change Akademy 3” loyihasida metodik manba sifatida foydalanildi(O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Farg’ona mintaqaviy filialining 2024-yil 11-dekabrdagi 871-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarning fanga qiziqishini kuchaytirish va bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta resrublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy-uslubiy ish chop etilgan, shundan, 1 ta darslik, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shulardan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, shuningdek, 5 ta ilmiy-amaliy konferensiya materiali nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 153 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, ishning maqsad va vazifalari, ishning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati asoslanib, olingan asosiy natijalar va amaliyotga joriy etish to‘g‘risidagi ma’lumotlar qisqacha tavsiflangan.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida “Xalqaro baholash tizimi” fanini o‘qitishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirishning muhim pedagogik muammolari, xorijiy oliy ta’lim muassasalarining kreativ faoliyatni rivojlantirish pedagogik tayyorgarlik tizimini rivojlantirish bo‘yicha tajribalari va ularning qiyosiy tahlili hamda O‘zbekiston Respublikasi OTMlarida pedagogik ta’lim sohalarida kreativ faoliyatni rivojlantirish holati va muammolari bayon qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-apreldagi farmoniga muvofiq, Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha mo‘ljallangan ta’lim konsepsiyasida uzluksiz ta’limda sifatli ta’lim berish, talabalar kreativ faoliyat darajasini rivojlantirishning samarali usullaridan keng foydalanishga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi.

O‘qituvchilarda kreativ faoliyatni rivojlantirish kabi pedagogik vazifalar Yan Amos Komenskiyning tadqiqotlarida alohida o‘ringa ega bo‘lib, o‘quv bilish faoliyatini bilish rivojlanishida empirik, ilmiy va amaliy bosqichlarini asosiy manbalari bo‘lgan ong va sezgilar xususiyatini tavsiflab bergan.

K.D.Ushinskiy o‘qituvchining kreativ faoliyatni ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishi jarayonida shakllanib borayotgan g‘oyalarga ishonch va qat’iyatni tarbiyalab borish zaruratini qayd etadi.

Kreativlik – lotincha atama bo‘lib, “ijod” yoki “yo‘q narsadan yaratish” kabi ma’noni anglatadi. G‘arbda kreativlik ijodning texnologik elementi sifatida talqin etiladi. Axborot davriga qadar kreativ texnologiyalar haqida kamdan-kam odamlar ma’lumotga ega bo‘lgan. Jamiyatda ijodkorlik tushunchasi yuqori baholangan va bu haqda O‘rta asrda ham keng tushunchaga ega bo‘lingan.

Kreativlik - bu inson aql kuchining yuqori darajasi bo‘lib, o‘zaro aloqadorliklarni o‘zgartirish va yaratish orqali yangi mazmunni tarkib topishi haqida L.F.Spirin o‘z ilmiy tadqiqot ishlarida ta’kidlab o‘tgan.

Adabiyotlar tahlilidan ma’lumki, kreativlik — yangi g‘oyalarni yaratish va ularni samarali amalga oshirish qobiliyatidir. Pedagog olimlar M. Ranko va G. Jeger ta’kidlashicha, “kreativlik — bu bolaning yangi g‘oyalar yaratishi, noan’anaviy yechimlarni taklif qilishi va mavjud ma’lumotlar asosida haqiqiy mahsulot (fikr, tasvir, ob’ekt va h.k.) yaratish qobiliyatidir.

V.N.Petrova, A.N.Petrovning ta’kidlashicha, kreativlik – bu yangilikka intilish, g‘ayriodatiy vaziyatda yechim topish shuningdek shaxsiy tajribani chuqur anglashga bo‘lgan qobiliyatdir. Kreativlik - kuchli idrok qobiliyati, disgarmoniyaga nisbatan ziyraklik, muammoni idrok qilish, yangilikka intilish, faol ijodkorlik, intellektual darajadagi ijodiy qobiliyatlardir.

O‘qitishda kreativ fikrlashni rivojlantirishga bag‘ishlangan ishlar orasida N.I. Zilberberg, V.A. Krutetskiy, I.G. Lipatnikova, L.M. Fridman, E.H. Turetskiy, kreativ matematik faoliyatning xususiyatlari J.A.D. Aleksandrov**,** A.B. Dahlinger, A.Puankare va boshqalarning ilmiy metodik manbalarida yoritilib o’tilgan.

Tadqiqotimiz davomida adabiyotlarni tahlil qilish va o‘rganishlarimiz natijasida biz ham o‘z mualiflik fikrimizni keltirdik:

“Kreativlik –bu bizning nuqtai nazarimizdan qarashimizcha yangicha fikrlash qobiliyati ya’ni g‘oyalar yaratish qobiliyati hisoblanib, mavjud bilimlar va tajribalarga tayangan holda yangi va o‘ziga xos usullarni qo‘llash orqali o‘ziga xos va noan’anaviy yechimlarni, g‘oyalarni izlab topishdir”.

Taqqiqotimiz davomida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirishning ta’lim amaliyotidagi holatini tahlil qilib chiqdik.

Bizning oliy ta’lim tizimimizda kreativ faoliyatni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan omillar nimadan iborat ekanini tahlil qilsak, bu shunchaki bitta sabab emas, balki bir-biriga bo‘g‘langan tizimli muammolar ekanini ko‘rishimiz mumkin.

Ushbu 1-rasmga tayanib xulosa qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston hozirgi kunda “akademik bilim olish”dan “amaliy kreativlik”ka o‘tish bosqichida turibdi.


Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bu zanjirning eng muhim bo‘g‘inidir. Chinki kreativlik poydevori aynan boshlang‘ich ta’limda tahsil olayotgan 7-11 yoshda qo‘yiladi. Agar boshlang‘ich ta’limda dars beruvchi pedagogning o‘zi (PISA, TIMMS, PIRLS) kabi xalqaro baholash standartlarini tushunmasa va ijod qilmasa bu ko‘nikmani o‘quvchilarda shakllantira olmaydi.

KREATIV FAOLIYATNI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TA’LIM AMALIYOTIDAGI HOLATI	
O‘ZBEKISTON	**XORIJDA**

Darsliklar va kontent	
Yangi avlod darsliklariga (Milliy o‘quv dasturi) kreativ fikrlovchi topshiriqlar kiritila boshlandi. lekin, shunga qaramay ayrim darslikdagi mavzular ma’lumotlarni yodlashga qaratilgan	Darsliklar muammoli ta’lim texnologiyalariga mos holda tuzilgan. O‘quvchi tayyor ma’lumot olmasdan muammoni yechimini o‘zi kashf qilish uchun kontent
O‘qitish metodikasi	
Ta’lim tizimimizda hali hamon an’anaviy ma‘ruza va usullaridan foydalaniladi. SCAMPER, Design Thinking kabi metodlar endi ommalashmoqda.	**Maker Education** , **STEAM** asosiy o‘rin tutadi. Talaba darsda “g‘oya yaratuvchi” (maker) sifatida qatnashadi.
Yondashuv	
O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ta’lim tizimi: kompetensiyaviy yondashuv, xalqaro baholash dasturlariga moslashuv asosida rivojlanmoqda. Xususan, quyidagi dasturlar asos qilib olingan: - PISA - TIMSS - PIRLS Bu dasturlar talabalarning:kreativ fikrlashi, muammo yechish qobiliyati va real hayotga moslashuvini baholaydi	Finlandiyada ta’lim berish 100% kompetensiyaga asoslangan holda olib boriladi. Darslar muammoni yechish, loyiha ishlari va kreativ fikrlashga yo‘naltirilgan. Darsda talabalar fikrini erkin bayon qiladi. O‘qituvchi talabalarni yo‘naltiruvchi rolida. Singapurda “Teach Less, Learn More” modeli joriy qilingan. “Teach Less, Learn More”(TLLM)-bu Singapore Ministry of Education tomonidan joriy qilingan ta’lim konsepsiyasi bo‘lib unda kamroq “yodlash” va ko‘proq “tushunish va fikrlash”asosiy maqsad qilib olingan. Janubiy Koreyada Raqamli ta’lim + kreativ topshiriqlarga asoslangan ta’lim joriy qilingan. STEAM (Science, Tech, Engineering, Art, Math) modeli asosida darslar tashkil etiladi.
Kreativlik	
Kreativ faoliyatni rivojlantirishdagi amaliy ishlar bo‘yicha bosqichma- bosqich ko‘plab ishlar amalga oshirilyabdi. O‘quv dasturlari xalqaro baholash dasturlariga moslashtirildi. - DTS asosidagi mavzular hayotiy vaziyatlarga moslashtirib tuzildi; - Testlar va topshiriqlar mantiqiy va tahliliy fikrlashga yo‘naltirildi; PISA tipiga mos bo‘lgan topshiriqlar tuzildi. - talabalar tayyor javob emas, balki fikr yuritadi. Kreativ fikrlash: yozma, vizual, muammoli vaziyatlarda namoyon bo‘ladi.	Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreyada bu tizim allaqachon barqaror ishlamoqda.
Baholash tizimi	
Aralash (test + yangi). Baholash asosan test va og‘zaki so‘rov (bilim yordamida) amalga oshirish orqali. Kreativlikni boshqarish mezonlari hali to‘liq shakllanmagan.	Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreyada baholash to‘liq kompetensiyaviy baholash tizimida. To‘liq kompetensiyaviy baholash bu-talabani faqat bilim bilan emas, balki bilimni real hayotda qo‘llay olish qobiliyati orqali baholash tizimi.
O‘qituvchi roli	
O‘qituvchi — bilim beruvchi va nazorat qiluvchi shaxs.	O‘qituvchi — **fasilitator** (yo‘lovchi). U talabaga yo‘l ko‘rsatuvchi, lekin yechimni talabaning o‘ziga qoldiradi.
Muammolar	
Kreativ topshiriqlar hali ham barcha oliy o‘quv yurtlarida to‘liq joriy etilmagan. O‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emas. An’anaviy (yodlashga asoslangan) ta’lim hali mavjud.	Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreyada ta’lim tizimi xalqaro baholash dasturlari asosida tashkil etilgan. Kompetensiyaga asoslangan amaliy va hayotiy topshiriqlarga yo‘naltirilgan

1-rasm. Kreativ faoliyatni xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirishning ta’lim amaliyotidagi holati

Bu omillarni ushbu rasm asosida guruhlarga bo‘lib yoritib berilgan(2- rasm).



2- rasm. Kreativ faoliyatni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan omillar


Xalqaro baholash tizimi fanini o‘qitishning bosh vazifalari quyidagilardan iborat(3-rasm).



3-rasm Xalqaro baholash tizimi fanini o‘qitishning bosh vazifalari

Boshlang‘ich ta’lim yo’nalishlarida xalqaro baholash tizimi fanini o‘qitishning asosiy maqsadi – talabalarda hayotda zarur bo‘ladigan eng oddiy ilmiy tasavvurlar, bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish orqali tafakkur faoliyatini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatini asos solishdan iborat.

Xalqaro baholash tizimi fanining mazmuni bosqichma-bosqich tamoyili asosida tashkil etilgan bo‘lib, Boshlang’ich ta’lim yo’nalish 4-kurslarda fanning quyidagi yo‘nalishlari qamrab olinadi(4-rasm).



4-rasm Xalqaro baholash tizimi fanining bosqichma-bosqich tamoyili asosida tashkil etish yo‘nalishlari

Fan talabalarni xalqaro tadqiqotlarda qo‘llaniladigan o‘quv topshiriqlari, kompetensiyaga yo‘naltirilgan darslarni loyihalash, baholash me’yorlarini qo‘llashga o‘rgatadi. O‘qituvchi sifatida xalqaro baholash natijalaridan dars jarayonini takomillashtirishda foydalanish malakasi shakllantiriladi.

Tadqiqot ishi rivojida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirish maqsadida o‘qitishning ayrim didaktik tamoyillari tayanishni maqsad qilib olindi.

Shunday qilib, tadqiqot muammosi yuzasidan olib borilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish hamda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy faoliyati xususiyatlarini hisobga olish asosida quyidagi ta’rif shakllantirildi.

Mualliflik ta’rifi: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatni xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish jarayoni sub’ektivlikning aksiologik, kognitiv va praksiologik komponentlari birligida namoyon bo‘ladigan murakkab pedagogik jarayondir.

Xulosa qilganda, tadqiqot ishi mobaynida pedagogik kategoriyasi muammoli, loyihalash, interaktiv va o‘yinli texnologiyalar, shaxsga yo‘naltirilgan, aksiologik, refleksiya va metakognitiv kabi metodik yondashuvlardan foydalanish talabalarning mantiqiy masala va misollar yechish qobiliyatlarini ijodiy faoliyatli yondashuvini hisobga olishni ham taqozo etadi.

Dissertatsiyaning **“Xalqaro baholash dasturlari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida “Xalqaro baholash tizimi” fanini o‘qitishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirishning mazmuni, shakl va samarali metodlari, metodik modeli, o‘quv-metodik ta’minotlari tahlil qilingan.

Tadqiqot ishi rivojida talabalarda kreativ faoliyatning rivojlantirish mazmuni asosida quyidagi *metodik yondashuvlar* amalga oshirib borildi.

1. Xalqaro baholash dasturlari asosida muammoli savollarga yechim topish – ta’limdagi samarali metodlardan biri bo‘lib, talabalarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yechim topish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Muammoli savollar talabalar oldiga nomuayyan, turli yechimlarga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan vaziyatni qo‘yadi va ulardan tahlil, taqqoslash va xulosa chiqarish talab qilinadi.

2. “Xalqaro baholash tizimi” fanini o‘qitishda talabalarning turli o‘yin va ijodiy topshiriqlar orqali mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish – talabaning faol, mustaqil va ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllanishi ustuvor maqsadlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida bu xususiyatlarni rivojlantirish uchun fanlar orasida xalqaro baholash tizimlari muhim o‘rin tutadi. Bu fanni o‘qitish jarayonida o‘yinlar va ijodiy topshiriqlardan foydalanish talabaning ongini faollashtiradi, mustaqil fikr yuritishga undaydi va bilimni amaliyot bilan bog‘lash imkonini yaratadi. “Xalqaro baholash tizimi” darslarida o‘yin elementlari va ijodiy topshiriqlardan samarali foydalanish faol ta’lim metodlari, konstruktorlik yondashuvi va muammoli ta’lim texnologiyalariga tayangan holda amalga oshiriladi. Bu usullar talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish, mantiqiy tahlil va sintez qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Talabalarda kreativ faoliyatni rivojlantirishda o‘qituvchi o‘yinli faoliyat va ijodiy topshiriqlar bilan ishlash metodikasiga quyidagicha amal qiladi:

Didaktik o‘yinlar (masalan: “Harakat garafigi”, “Bog‘bon”, “Valyuta ayirboshlash”) orqali talabalarda hisoblash, solishtirish, tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

Raqamli kvestlar: talabalar ma’lum bir misollarni yechish orqali “og’irlik” yoki “soat mintaqalari” kabi syujetli maqsadlarga erishadilar. Bu esa hissiy motivatsiyani kuchaytiradi.

O‘yin kubchalar, krossvordlar, plitkalarlar: tezkor fikrlash, taqqoslash, javobni yodda saqlash orqali aqliy faoliyatni rag‘batlantiradi (3-ilova).

3. Ijodiy topshiriqlar bilan ishlash metodikasida masala tuzish topshiriqlari – talabalarga tayyor javob beriladi va u shu javobga mos real hayotda uchraydigan masalani tuzishi so‘raladi.

“Qanday bo‘lishi mumkin?” uslubi: bir topshiriqni turli yo‘l bilan yechish taklif qilinadi, bu yechimlar taqqoslanadi va samaralisi tanlanadi.

Grafik va modellashtirish asosida topshiriq yaratish: tasvir va shakllardan foydalanib, topshiriq tuzish, tushuncha yaratish orqali talabalarning e’tibori va tasavvuri rivojlanadi.

Talaba har bir savolga javob berganda fikrlaydi, tasavvur qiladi, o‘lchaydi, tahlil qiladi.


4. Xalqaro baholash darslarida o‘yin va ijodiy topshiriqlardan foydalanish — nafaqat dars jarayonini qiziqarli qilish, balki fikrlash jarayonini faollashtirishning samarali vositasidir. O‘qituvchi talabalarga faqat bilim emas, balki mustaqil yechim topishga yo‘naltirilgan topshiriqlar orqali intellektual mustaqillik va ijodiy qarashni shakllantirishi lozim. “Xalqaro baholash tizimi” darslarida kreativ faoliyatni rivojlantirish masalalari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, talabalarda aniqlik, tahlil qilish, modellash va prognozlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu jihatdan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida bilimni o‘zlashtirishda kreativ topshiriqlar, ijodiy

masalalar, muammoli vaziyatlar, intellektual o‘yinlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

5. “Xalqaro baholash tizimi” fanidan kreativ faoliyatni rivojlantirish uchun mavzu asosida loyiha ishini bajarish va uni taqdim etish. Bugungi kunda ta’lim tizimidagi asosiy vazifalardan biri – talabalarda kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarni yechish va hayotdagi masalalarga mantiqiy yondashuvni shakllantirishdan iborat. Bu ko‘nikmalarni shakllantirishda loyihaviy usullar va amaliy topshiriqlar muhim o‘rin tutadi.


Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida bilim va ko‘nikmalarni tarkib toptirish intellektual, motivatsion, tahliliy, taqqoslovchi va ijodiy - amaliy faoliyatni tashkil etuvchi tarkibiy komponentlar yordamida amalga oshiriladi.

“Xalqaro baholash tizimi” fanini o‘qitishda talabalarda kreativ faoliyatni rivojlantirish masalasi bevosita ta’lim samaradorligini ta‘minlash uchun bir qator pedagogik prinsiplarga tayanadi. Bu prinsiplar o‘quv jarayonining mazmun-mohiyatini belgilab beradi, metod va shakllarni tanlashda, ta’limni tashkil etish va natijalarini baholashning metodik vazifasini bajaradi. Ayniqsa, talabaga yo‘naltirilgan ta’lim sharoitida faol ta’lim, interaktivlik, ijodiy yondashuv, individuallashtirish, refleksiya va baholash kabi printsiplar ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishda muhim o‘rin tutadi (5-rasm).



5-rasm. Fanlarni o‘qitishning pedagogik prinsiplari

Ta’limda talabalarni kreativ fiklashi bugungi yoshlar ega bo‘lishi kerak bo‘lgan muhim ko‘nikmadir. Bu ko‘nikma kelajakda mavjud bo‘lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishiga o‘rgatadi. Talabalarda kreativ faoliyat ko‘nikmasini rivojlantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Haqiqatda ham, bunday yondashuv – aniq va tushunarli modelni qurish – ularni shakllantirish bo‘yicha ratsional metodik usullarni topish imkonini beradi va bu ayniqsa, talabalarning nafaqat dars tizimi orqali xabardor qilishga, balki ulardagi tabiatan mavjud qobiliyatlar va iqtidorlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bizga ma’lumki, “Xalqaro baholash tizimi” fanining o‘ziga xos xususiyati muammoli vaziyatlar, ijodiy masalalar va mantiqiy fikrlashga asoslanganligi bois, ilmiy pedagogik g‘oya, komponentlar va tuzilish prinsiplari talabalarda kreativ faoliyatni rivojlantirishning metodik modelini takomillashtirish imkoniyatini beradi(6-rasmga qarang).



6-rasm. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirishning pedagogik modeli

Mazkur metodik modelni amaliyotga joriy etish, avvalo, o‘qituvchining tayyorgarligi, ta’lim resurslari va dars mazmunining innovatsion yechimlarga asoslangan bo‘lishi bilan bog‘liq. Metodik model doirasida tashkil etilgan darslar orqali talabalarda kreativ tafakkur, mustaqil fikrlash, innovatsion qarash, loyiha asosida ishlash ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa keyinchalik ularning faoliyatida yoki real hayotiy vaziyatlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, kreativ faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan metodik modelni amaliyotga tadbiq qilishda talaba motivatsiyasi, shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlari, oilaviy va ijtimoiy muhitning ta’siri ham hisobga olinishi lozim.

Metodik model quyidagilarga asoslanadi: talabalarning ijodiy fikrlash faoliyatini tahlil qilish; didaktik sharoitlarni aniqlash (ya’ni kreativ muhit yaratish omillari); talabalar kreativ faoliyatini rivojlantirishda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish; kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar, loyihalar, muammoli vazifalar tizimini ishlab chiqish; natijalarni baholash, qobiliyatlarni tahlil qilish va monitoring olib borish.

Modelda talabalarning ijodiy faoliyatni rivojlantirish bosqichlari quyidagi bosqichlar bilan uyg‘un bo‘ladi:

1. Kognitiv bosqich. Talabalarda kreativ faoliyatning nazariy-metodologik asoslari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xalqaro baholash dasturlari hamda kreativ fikrlashni rivojlantirish mexanizmlari to‘g‘risidagi bilimlar tizimi shakllantiriladi. Talabalarning muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, axborotni tanqidiy baholash va kreativ yechimlarni izlashga oid kognitiv kompetensiyalari rivojlantiriladi;
2. Tadqiqot-rivojlantirish bosqichi. Talabalarning ilmiy-izlanish va loyihalash faoliyati faollashtiriladi. Xususan, TIMSS, PISA va PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlariga mos topshiriqlarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish, innovatsion yondashuvlar asosida darslarni loyihalash, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish hamda kreativ ta’lim muhitini tashkil etish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar shakllantiriladi.
3. Faoliyat bosqichi. Bu bosqich talabalarning mustaqil va ijodiy pedagogik faoliyatini amalga oshirishga yo‘naltiriladi. Unda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli ta’lim vositalari va innovatsion metodlardan foydalangan holda kreativ pedagogik loyihalarni ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish va natijalarini refleksiv tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Mazkur pedagogik modelda kreativ faoliyatning rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun to‘rtta asosiy mezon: raqamli kompetensiya, kognitiv, motivatsion va amaliy mezonlar belgilanadi.

1. Raqamli kompetensiya mezoni - bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli ta’lim resurslari va interaktiv vositalardan maqsadli, samarali hamda ijodiy foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu mezon talabalarning raqamli texnologiyalar yordamida o‘quv materiallarini yaratishi, elektron ta’lim platformalaridan foydalanishi, interaktiv topshiriqlar ishlab chiqishi va o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi raqamli muhitni tashkil etish ko‘nikmalarini baholashga qaratiladi.

Asosiy ko‘rsatkichlari - Raqamli savodxonlik va axborot bilan ishlash ko‘nikmalarining shakllanganligi, elektron ta’lim platformalari va raqamli resurslardan foydalanish qobiliyati, interaktiv taqdimotlar, elektron testlar va multimedia materiallarini yaratish ko‘nikmasi, sun’iy intellekt vositalari va innovatsion raqamli texnologiyalardan pedagogik maqsadlarda foydalanish, raqamli xavfsizlik, axborot madaniyati va mualliflik huquqiga rioya qilishdan iborat.

Talaba raqamli texnologiyalardan foydalanib, kreativ ta’limiy topshiriqlar, interaktiv mashqlar va elektron o‘quv materiallarini mustaqil ishlab chiqish kompetensiyasiga ega bo‘ladi.

2. Kognitiv mezon (bilim va ko‘nikma darajasi) - bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatni tashkil etish bo‘yicha nazariy bilimlari, pedagogik-psixologik tushunchalarni o‘zlashtirganlik darajasi, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va nostandart yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatini belgilaydi. Mazkur mezon talabalarning kreativ pedagogik faoliyatga oid bilimlarni egallashi, ularni ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini anglash hamda xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS, TIMSS) mazmuniga mos ijodiy topshiriqlarni ishlab chiqish salohiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Asosiy ko‘rsatkichlari - Boshlang‘ich ta’lim metodikasi va pedagogik texnologiyalarni bilish darajasi, muammoli vaziyatlarni aniqlash, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati, tanqidiy, mantiqiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanganligi, blum taksonomiyasi asosida turli murakkablikdagi topshiriqlarni ishlab chiqish qobiliyati, PISA, PIRLS va TIMSS xalqaro baholash dasturlarining mazmuni va talablarini bilishdan iborat.

Talaba kreativ faoliyatning nazariy asoslarini chuqur anglaydi, pedagogik muammolarni tahlil qiladi va yangi ta’limiy g‘oyalarni ishlab chiqish uchun zarur bilim hamda ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

3. Motivatsion mezon (pedagogik tayyorlov jarayoniga bo‘lgan qiziqish va ishtirok) - bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarlik jarayoniga bo‘lgan qiziqishi, kreativ faoliyatni amalga oshirishga intilishi, yangilik yaratishga bo‘lgan ehtiyoji hamda o‘z ustida mustaqil ishlashga tayyorlik darajasini ifodalaydi. Ushbu mezon talabalarning pedagogik faoliyatga nisbatan ijobiy munosabati, ijodiy tashabbuskorligi, innovatsion metodlarni o‘rganish va amaliyotga tatbiq etishga bo‘lgan ichki ehtiyojini aniqlashga yo‘naltiriladi.

Asosiy ko‘rsatkichlari - Kasbiy-pedagogik faoliyatga bo‘lgan qiziqish va ijobiy munosabat, kreativ faoliyatni amalga oshirishga ichki ehtiyoj va intilish, yangi pedagogik g‘oyalar va innovatsion metodlarni o‘zlashtirishga qiziqish, mustaqil ta’lim olish va o‘z ustida ishlashga intilish, ijodiy loyihalar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlarda faol ishtirok etish, pedagogik faoliyatda tashabbuskorlik va mas’uliyatni namoyon etishdan iborat.

Talabalarda kasbiy faoliyatga nisbatan barqaror qiziqish, kreativ izlanishga ehtiyoj, pedagogik yangiliklarni o‘zlashtirish va ijodiy tashabbus ko‘rsatish motivatsiyasi shakllanadi.

4. Amaliy mezon (ijodiy va metodik faoliyatni amalga oshirish darajasi) - bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining egallagan nazariy bilim va ko‘nikmalarini real pedagogik vaziyatlarda qo‘llay olishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ijodiy ta’limiy faoliyatni tashkil etishi hamda mustaqil metodik ishlanmalar yaratish qobiliyatini tavsiflaydi. Mazkur mezon talabalarning kreativ metodlardan foydalanishi, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ijodiy topshiriqlar ishlab chiqishi, dars jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llashi va pedagogik natijalarni baholash ko‘nikmalarini aniqlashga xizmat qiladi.

Asosiy ko‘rsatkichlari - Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan samarali foydalanish, SCAMPER, muammoli ta’lim, loyiha metodi va Maker Education kabi yondashuvlarni qo‘llash, mustaqil ravishda kreativ dars ishlanmalari va metodik materiallar yaratish, PISA, PIRLS va TIMSS talablariga mos ijodiy topshiriqlar ishlab chiqish, pedagogik vaziyatlarda nostandart yechimlarni qo‘llash, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi va mustaqil faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni tashkil etish, o‘z faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirishdan iborat.

Talaba zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, ijodiy dars mashg‘ulotlarini loyihalashtirish, metodik ishlanmalar yaratish va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirishga qodir bo‘ladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik modelning baholash metodologiyasi talabalarning kreativ faoliyatini rivojlanganlik darajasini aniqlash, olingan natijalarni tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni belgilash hamda ta’lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.


Mazkur metodologiya doirasida talabalarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligi, kreativ, tahliliy va kommunikativ kompetensiyalari, mustaqil fikrlash qobiliyati hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari kompleks ravishda baholanadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatning shakllanganligi va rivojlanganligi, kasbiy-pedagogik kompetensiyalarning takomillashganligi hamda zamonaviy ta’lim sharoitida mustaqil, ijodiy va innovatsion faoliyatni amalga oshirishga tayyor mutaxassisni tayyorlashdan iborat.

Tadqiqot rivojida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirish uchun “Xalqaro baholash tizimi” fanidan ma‘ruza, amaliy mashg‘ulot, mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari va uy ishlarida mustaqil topshiriqlar bajarishga oid ko‘nikmalarni tarkib toptirish maqsadida xalqaro baholash dasturlarini o‘qitishda yordamchi metodik ta’minot sifatida “mustaqil ish mobil ilova”si ishlab chiqildi va tajriba – sinov ishlarida samarali foydalanib borildi.

Ta’limda mobil ilovaning ta’limiy roli: abstrakt tushunchalarni vizuallashtirish orqali tushunishni osonlashtiradi; avtonom o‘qish, o‘zlashtirish va muammoli holatda hal qilish ko‘nikmasini shakllantiradi; talabaning metakognitiv faoliyatini (o‘z o‘quv jarayonini boshqarish qobiliyatini) rivojlantiradi; kreativ fikrlash va amaliy vazifalarni yechish qobiliyatini rivojlantiradi.

Mobil ilovalar orqali beriladigan interaktiv testlar, mashqlar, kvestlar va virtual simulyatsiyalar bo‘lajak boshlang‘ich o‘qituvchida bilimlarni qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiradi. Bu talabada faollashgan bilim shakllanishini rag‘batlantiradi (7-rasm).



7-rasm. Interaktiv testlar va kreativ mashqlar bilan ishlash jarayoni

Mobil ilova orqali ishlangan vazifalar natijalari real vaqtda chiqadi. Bu natijalar talabalarga o‘z xatolarini tahlil qilish, o‘z ustida ishlash, muvaffaqiyat va kamchiliklarni kuzatish imkonini beradi. Ushbu jarayon refleksiyani rivojlantiradi. “Mustaqil ish mobil ilova” orqali tashkil etilishi, uning didaktik funksiyalarni kengaytirish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga xizmat qilishi bilan muhim. U axborot berish, bilimni amalga qo‘llash, refleksiya va motivatsiyani rag‘batlantirish, interaktiv aloqa va innovatsion baholash kabi asosiy didaktik funksiyalarni bajaradi.

Mobil ilovadan foydalanuvchi uchun qulay, sodda va psixologik jihatdan yo‘naltirilgan quyidagicha interfeys tuziladi (8-rasm).

Yoshga mos grafik elementlar	Dizayndagi yangilik	Texnik ishlanmalar	Qo‘llanadigan texnologiyalar	Asosiy funksiyalar
Kam ranglilik (kognitiv klamani kamaytirish uchun); Tushunarli tugmalar va menyu; Mobil qurilmalarga moslashuvchanlik	nazariy materiallarni infografika shaklida taqdim etish	Bu bosqichda dasturlash va funksional kodlash amalga oshiriladi	Frontend: Flutter / React Native Backend: Firebase / Node.js Database: Firestore / SQLite	Ro‘yxatdan o‘tish / Kirish; Mavzularni tanlash; Mashqlarni bajarish; Avtomatik baholash; Statistika yuritish

8-rasm. Mobil ilovani tuzilmasi.

“Xalqaro baholash tizimi” darslarida mobil ilovadan foydalanish metodikasining maqsadi talabalarning mustaqil faolligi, mantiqiy fikrlashi, hisob-kitobda ishonchliligi va o‘zaro muammoni hal qilish kompetentsiyalarini rivojlantirishga asos bo‘ladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi”** deb nomlanadi. Mazkur bobda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlarining mazmuni va metodikasi hamda natijalarining samaradorlik ko‘rsatkichlari tadqiq etilgan.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirishga doir tadqiqot ishi 3 bosqichdan iborat bo‘lib, 2022−2025-yillar (2022−2023, 2023−2024, 2024−202-5o‘quv yillari) da tashkil qilindi va o‘tkazildi. Tajriba-sinov ishlari tanlab olingan 3 ta oliy ta’lim muassasasida (jami 743 nafar talaba) o‘tkazildi. Tajriba-sinov maydonlari sifatida quyidagi oliy ta’lim muassasalar belgilandi (1-jadval).

1-jadval

Respondent-talabalarning OTMlar kesimidagi va umumiy soni

№	OTMlar	Umumiy soni
1.	Navoiy davlat universiteti	176
2.	Qo‘qon davlat universiteti	301
3.	Andijon davlat pedagogika instituti	266
	Jami	743

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirish uchun “Xalqaro baholash tizimlari” nomli darslik ishlab chiqildi. Kreativ fikrlash diagnostikasi uchun “Boshlang‘ich ta’limda xalqaro baholash tizimlari” fani bo‘yicha o‘quv materiallarini o‘z ichiga oluvchi kompleks topshiriqlar ishlab chiqildi. Mazkur topshiriq natijalari ko‘pchilik talabalar tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishlarni o‘rnatish, klassifikatsiyalash va umumlashtirishga yo‘naltirilgan topshiriqlarni bajarishga qiynalganini aniqlashga imkon berdi. Qayd etamizki, sinalganlar ichidan (20% tajriba guruhi, 28% nazorat guruhi) topshiriqlarni bajarish uchun o‘qituvchi yordami kerak bo‘ldi, yana o‘ylash uchun vaqt taklif etildi(2-jadval).

2-jadval

Tajribaning qayd etuvchi bosqichida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kreativ fikrlashini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish uchun topshiriqlar natijalari bo‘yicha solishtirma analiz

Topshiriqlar nomi	Ko‘rsatkichlar (%)	
	Tajriba guruhi	Nazorat Guruhi
Sehrli sonlar	8	10
Sonlar orasidagi sir	7	9
Matematik doira	11	9
Sehrli kvadrat	12	11
“Sehrli o‘simlik siri”	6	7
Matnni davom ettir	12	10
Matematik kalendar	13	11
PIRLS matni uchun topshiriq tayyorla	9	11
O‘lchovli kvadratchalar	8	9

Ushbu tadqiqot ishida ushbu maqsadni amalga oshirishda tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘zlashtirishlar yuqoridagi mezonlar bo‘yicha Styudent, Fisher va Pirson metodlari yordamida matematik-statistik tahlil etildi.

Tajriba avvali va yakunidagi tajriba va nazorat guruhilaridagi natijalarni umumlashgan holda quyidagi jadvalda aks ettiriladi(3-jadval).

3-jadval.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni rivojlanganlik ko‘rsatkichlari (tajriba avvalida)

Guruhlar	Talabalar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Quyi
Tajriba guruhi	379	117	114	148
Nazorat guruhi	364	109	106	149

Tajriba guruhlaridagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va talabalar sonini mos ravishda X_i, n_i lar va shu kabi nazorat guruhlaridagini esa Y_j,m_j lar orqali belgilab olib, quyidagi statistik guruhlangan variatsion qatorlarga ega bo‘linadi, shuningdek, “Yuqori” ko‘rsatkichni 3 ball bilan, “O‘rta” ko‘rsatkichni 2 ball bilan va “Quyi” ko‘rsatkichni 1 ball bilan belgilanadi. Bu ko‘rsatkichlar quyidagi ko‘rinishni oladi.

Tajriba guruhilaridagi talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari

$$\begin{cases} X_i & 3 & 2 & 1 \\ n_i & 117 & 114 & 148 \end{cases} \quad (n = 379)$$


Nazorat guruhlaridagi talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari

$$\begin{cases} Y_j & 3 & 2 & 1 \\ m_j & 109 & 106 & 149 \end{cases} \quad (m = 364)$$

Statistik tahlil o‘tkazishni qulaylashtirish maqsadida yuqoridagi variatsion qatorlardan n_i va m_j takroriylik (chastota)larning mos statistik ehtimolligi $P_i = \frac{n_i}{n}$ va $P_j = \frac{m_j}{m}$ dan iborat.

$$\begin{cases} X_i & 3 & 2 & 1 \\ P_i & 0{,}31 & 0{,}3 & 0{,}39 \end{cases} \text{ va } \begin{cases} Y_j & 3 & 2 & 1 \\ P_j & 0{,}3 & 0{,}29 & 0{,}41 \end{cases} \quad (1)$$

Bu tanlanmalarga mos diagramma quyidagi ko‘rinishni oladi:



9-rasm. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni rivojlanganlik ko‘rsatkichlari diagrammasi (tajriba avvalida).

Statistik tahlilni har ikki guruh bo‘yicha o‘rtacha o‘zlashtirishlarini hisoblab, qiyoslashdan boshlanadi. O‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari tajriba yakunida quyidagi natijalarni berdi:

$$\overline{X} = \sum_{i=1}^{3} P_i x_i = 0{,}31 \cdot 3 + 0{,}3 \cdot 2 + 0{,}39 \cdot 1 = 0{,}93 + 0{,}6 + 0{,}39 = 1{,}92$$

Foizda $\overline{X}\% = \frac{1{,}92}{3} \cdot 100\% = 64\%$

$$\overline{Y} = \sum_{i=1}^{3} P_j y_j = 0{,}3 \cdot 3 + 0{,}29 \cdot 2 + 0{,}41 \cdot 1 = 0{,}9 + 0{,}58 + 0{,}41 = 1{,}89$$

Foizda $\overline{Y}\% = \frac{1{,}89}{3} \cdot 100\% = 63\%$

Demak, tajriba guruhlaridagi talabalarning o‘rtacha o‘zlashtirish (64-63) %=1%ga yuqori ekan. Bu esa o‘z navbatida $\frac{64\%}{63\%} = 1{,}01$ barobar ortiqligini va samaradorlikka erishish past ko‘rsatkichni anglatadi. Demak, tajribadan oldin hech

qanday samaradorlikka erishilmagani natijadan ko‘rinib turibdi. Endi tajriba yakunidagi natijalardan samaradorlikka erishilgan yoki erishilmaganini aniqlanadi.

4-jadval.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni rivojlanganlik ko‘rsatkichlari (tajriba yakunida)

Guruhlar	Talabalar soni	O‘zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O‘rta	Quyi
Tajriba guruhi	379	205	98	76
Nazorat guruhi	364	116	102	146

Tajriba guruhlaridagi talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va talabalar sonini mos ravishda tajriba avvalidagidek belgilanadi. Bu ko‘rsatkichlar quyidagi ko‘rinishni oladi.

Tajriba guruhlaridagi talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari

$$\begin{cases} X_i & 3 & 2 & 1 \\ n_i & 205 & 98 & 76 \end{cases} \quad (n = 379)$$


Nazorat guruhlaridagi talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari

$$\begin{cases} Y_j & 3 & 2 & 1 \\ m_j & 116 & 102 & 146 \end{cases} \quad (m = 364)$$

Statistik tahlil o‘tkazishni qulaylashtirish maqsadida (1) formuladan foydalanmiz:

$$\begin{cases} X_i & 3 & 2 & 1 \\ P_i & 0{,}54 & 0{,}26 & 0{,}2 \end{cases} \text{ va } \begin{cases} Y_j & 3 & 2 & 1 \\ P_j & 0{,}32 & 0{,}28 & 0{,}4 \end{cases}$$

Bu tanlanmalarga mos diagramma quyidagi ko‘rinishni oladi:



10-rasm. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni rivojlanganlik ko‘rsatkichlari diagrammasi (tajriba yakunida).

Statistik tahlilni har ikki guruh bo‘yicha o‘rtacha o‘zlashtirishlarini hisoblab, qiyoslashdan boshlanadi. O‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari tajriba yakunida quyidagi natijalarni berdi:

$$\overline{X} = \sum_{i=1}^{3} P_i x_i = 0{,}54 \cdot 3 + 0{,}26 \cdot 2 + 0{,}2 \cdot 1 = 1{,}62 + 0{,}52 + 0{,}2 = 2{,}34$$

Foizda $\overline{X}\% = \frac{2{,}34}{3} \cdot 100\% = 78\%$

$$\overline{Y} = \sum_{i=1}^{3} P_j y_j = 0{,}32 \cdot 3 + 0{,}28 \cdot 2 + 0{,}4 \cdot 1 = 0{,}96 + 0{,}56 + 0{,}4 = 1{,}92$$

Foizda $\overline{Y}\% = \frac{1{,}92}{3} \cdot 100\% = 64\%$

Demak, tajriba guruhidagi o‘rtacha o‘zlashtirish (78-64) %=14%ga yuqori ekan. Bu esa o‘z navbatida $\frac{78\%}{64\%} = 1{,}22$ barobar ortiqligini anglatadi.

Olingan natijalardan o‘qitish samaradorligini baholash mezonining birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko‘rish mumkin. Ma’lumki, tajriba guruhlaridagi talabalarning o‘zlashtirishlari nazorat sinflaridagi talabalarning o‘zlashtirishlaridan yuqori ekan. Demak, ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirish yuzasidan o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarali ekan.

XULOSA

“Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kreativ faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish”(xalqaro baholash tizimi fani misolida)” mavzusidagi tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar ishlab chiqilgan:

1. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirishning nazariy metodologik asoslari aniqlashtirildi hamda xalqaro baholash dasturlarining kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan mazmuni bilan uzviy bog‘liqligi asoslandi. Xususan, PIRLS, PISA va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlarida talabalarning mustaqil fikrlashi, muammoni hal qilishi, tahlil qilishi va turli vaziyatlarda bilimlarini qo‘llay olishi bilan bog‘liq kompetensiyalarni shakllantirishga qo‘yiladigan talablar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirish zaruratini belgilashi aniqlangan.
2. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatning mavjud holati o‘quv-metodik ta’minot, ta’lim mazmuni, o‘qitish metodlari hamda talabalarning kreativ faoliyatga tayyorgarlik darajasi mezonlari asosida tahlil qilindi. Diagnostik natijalar asosida talabalarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, muqobil yechimlarni ilgari surish, mustaqil fikrlash va ijodiy-amaliy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik ta’minotni takomillashtirish zarurati aniqlangan.
3. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyati mazmuni va tarkibiy tuzilmasi intellektual, motivatsion, tahliliy, taqqoslovchi hamda ijodiy-amaliy faoliyat komponentlari asosida aniqlashtirildi. Mazkur komponentlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi asosida kreativ faoliyatni baholashning tegishli mezon va ko‘rsatkichlari takomillashtirilgan**.**
4. “Xalqaro baholash tizimi” fanini o‘qitish jarayonida kreativ faoliyatni rivojlantirish metodikasi muammoli ta’lim, kreativ ta’lim, guruhli va loyihaviy ishlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Brainwriting, Maker Education, SCAMPER hamda bahs-munozara texnologiyalarining integratsiyasi asosida takomillashtirildi. Mazkur metodlarning xalqaro baholash dasturlari mazmuniga mos kreativ-analitik topshiriqlarni ishlab chiqish va qo‘llashdagi didaktik imkoniyatlari asoslangan.
5. Xalqaro baholash dasturlari mazmuniga mos metodik ta’minot-mashq daftari,

mustaqil ta’lim topshiriqlari, kreativ-analitik masalalar, muammoli vaziyatlar, modul asosidagi mashg‘ulotlar hamda AKT asosidagi “Mustaqil ish” mobil ilovasi mazmunan takomillashtirildi. Ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish talabalarning mustaqil ishlashi, muqobil yechimlar ishlab chiqishi, ijodiy tashabbus ko‘rsatishi va o‘z faoliyatini refleksiv baholash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi asoslangan.

6. Tajriba-sinov ishlari natijalari ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini matematik-statistik tahlil asosida tasdiqladi. Tajriba va nazorat guruhlarida aniqlangan natijalar o‘rtasidagi farq bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodikaning samaradorligini ko‘rsatgan.

7. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan metodik model, metodik tavsiyalar, topshiriqlar majmuasi, mashq daftari, modul asosidagi mashg‘ulotlar va AKT vositalarini oliy ta’lim muassasalarining boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida “Xalqaro baholash tizimi” fanini o‘qitish, mustaqil ta’limni tashkil etish hamda pedagogik amaliyot jarayonida qo‘llash imkoniyatlari bilan belgilangan.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Tadqiqotda ishlab chiqilgan kreativ faoliyatni rivojlantirish modeli (motivatsion, tahliliy, ijodiy, refleksiv komponentlar) boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishidagi barcha fanlarga bosqichma-bosqich integratsiya qilinishi tavsiya etiladi. Bu talabalarda kreativ fikrlashni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. PIRLS, PISA va TIMSS formatidagi kreativ-analitik masalalar, muammoli vaziyatlar, izlanishga asoslangan topshiriqlar muntazam qo‘llanilishi zarur. Bu bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ fikrlash darajasini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

3. Guruhli ishlar, loyiha metodi, AKT vositalari, Brainwritting, Maker education, SCAMPER texnologiyalari, baxs-munozara texnologiyalari kabi metodlarni muntazam tatbiq etish tavsiya etiladi. Bu talabalarda mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatni kuchaytiradi.

4. Kreativ pedagogika, dizayn qilish, muammoli metod, innovatsion ta’lim texnologiyalari bo‘yicha muntazam seminar va amaliy treninglar o‘tkazish oliy ta’lim muassasalari uchun zarur. Bu o‘qituvchilarning ham, talabalarning ham ijodiy salohiyatini oshiradi. Dissertatsiya jarayonida yaratilgan topshiriqlar majmuasi, mashq daftari, modul asosidagi mashg‘ulotlar va metodik ko‘rsatmalardan o‘quv mashg‘ulotlarida va pedagogik amaliyot jarayonida foydalanish tavsiya etiladi. Bu bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ faoliyatda mustaqillik va tashabbuskorligini oshiradi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03./2025.27.12.Ped.34.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КОКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

КОКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

АБДУЛЛАЕВА НАРГИЗА РОХАТАЛИЕВНА

«СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К КРЕАТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ»
(на примере дисциплины Международная система оценивания)

13.00.02 – Теория и методика воспитания и обучения

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам

Коканд– 2026

Тема диссертации на соискание степени доктора философии (PhD) педагогических наук зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Академии наук Республики Узбекистан под номером №B2025.4.PhD/Ped6983.

Докторская диссертация выполнена в Кокандском государственном университет.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.kokandsu.uz) и Информационно-образовательном портале "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Баратбаев Бекзод Батирович** доктор философии (PhD) по философским наукам, доцент
Официальные оппоненты:	**Артыкова Мухайохон Ботиралиевна** Доктор педагогических наук, профессор
	Тошибекова Муножат Хошимовна Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Ведущая организация:	**Ферганский государственный университет**

Защита диссертации состоится «14» 11 2026 года в 9⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03./2025.27.12.Ped.34.01 по присуждению ученых степеней при Кокандском государственном университете. (Адрес: 150700, город Коканд, улица Турон, 23. Тел.: (+998) 73-542-38-38; факс: (+998) 73-542-11-43; e-mail: Kokandsu.edu@gmail.com)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Кокандского государственного университета (зарегистрирована под №79) (Адрес: 150700, город Коканд, улица Турон, дом 23. Тел.: (+998) 73-542-38-38; факс: (+998) 73-542-11-43) e-mail: info@kokandsu.uz, kokandsu.edu@gmail.com.

Автореферат диссертации разослан « 02 » 11 2026 года

(протокол реестра рассылки № 43 -от «31» 10 2026 года).

Н.Ш.Эркабоева
Председатель Научного Совета по присуждению учёных степеней, д.п.н., профессор

Л.Р.Хайитов
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, д.п.н.(DSc), доцент

З.А. Холматова
Председатель Научного семинара при Научном Совете по присуждению учёных степеней, д.п.н.(DSc), профессор

Scanned with CamScanner

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В развитых странах мира реализуются крупные государственные программы и научно-исследовательские проекты по обеспечению прав граждан на образование, обеспечению качества и эффективности образовательных программ. В концепции образования до 2030 года, принятой международными организациями и развитыми странами, занимающимися вопросами образования, начальное образование было признано “основной движущей силой развития образования и важной деятельностью, ведущей к достижению целей в области устойчивого развития”, что еще больше усилило потребность в широком использовании эффективных методов развития технологий качественного образования, обучения учащихся на основе творчества и интеграции. Анализ передовых образовательных систем показывает, что трансформация целей, задач, содержания, условий и методов организации начального образования, начального образования в соответствии с современными требованиями, а также развитие креативного мышления как одного из навыков XXI века — способности применять новые подходы, находить инновационные решения и формировать у учащихся интерес к нововведениям — приобретают все большую актуальность.

Во мире проводятся научные исследования, направленные на ускорение развития систем оценки качества образования, расширение охвата стран, участников международных программ оценивания, а также обеспечение репрезентативности методологии и результатов оценивания. В этих исследованиях особое внимание уделяется созданию инновационной образовательной среды, а также внедрению требований международных образовательных стандартов, таких как PIRLS, PISA, TALIS, TIMSS, EGMA, EGRA. Возрастает количество исследований, посвященных анализу внедрения программ оценивания в национальные системы образования различных стран во взаимосвязи с результатами этих программ, а также развитию у учащихся навыков грамотности, компьютерной грамотности и владения иностранными языками в соответствии с концепциями международных программ оценивания.

Участие Республики Узбекистан в международных программах оценивания рассматривается как возможность повышения потенциала национальной системы образования. В настоящее время в республике эффективно осуществляется организационно-методический этап подготовки к участию в указанных программах. Одним из основных направлений долгосрочного развития системы народного образования определено достижение к 2030 году вхождения Республики Узбекистан в число 30 передовых стран мира по рейтингу международной оценки учащихся. Формирование учебно-познавательных компетенций учащихся начальной школы посредством организации самостоятельной работы рассматривается как один из важных процессов повышения эффективности образования. Создание инновационной образовательной среды, ориентированной на раскрытие внутреннего потенциала учащихся, развитие креативного и логического мышления, современных социальных навыков (самостоятельная работа,

проектирование, самоанализ, проявление способностей, применение полученных знаний в жизни), а также ориентация на компетенцию «обучение на протяжении всей жизни» требуют глубокого научного исследования. В настоящее время возрастает потребность в фундаментальных исследованиях, направленных на разработку теоретических основ и механизмов эффективного применения современных информационных и педагогических технологий, а также внедрения в образовательный процесс мотивационных, когнитивных, операциональных, рефлексивных показателей и показателей самооценки.

Настоящее диссертационное исследование в определенной мере служит обеспечению выполнения задач, определённых в Законе Республики Узбекистан «Об образовании» от 23 сентября 2020 года, Указе Президента Республики Узбекистан от 29 апреля 2019 года № ПФ-5712 «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года», Указе Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № ПФ-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 27 февраля 2020 года № ПП-4623 «О мерах по дальнейшему развитию сферы педагогического образования», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 6 октября 2020 года № ПП-4851 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования в сфере информационных технологий, развитию научных исследований и их интеграции с IT-индустрией», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 31 декабря 2019 года № 1059 «Об утверждении Концепции непрерывного духовно-нравственного воспитания и мерах по её реализации», а также другие нормативно-правовые документы, связанные с данной деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Настоящее исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В нашей стране проблемы приведения знаний, умений и навыков студентов в соответствие с требованиями времени, развития у них навыков, соответствующих международным исследованиям по оценке качества образования, посредством современных педагогических подходов, а также совершенствования методического и дидактического обеспечения в данной области нашли отражение в научных исследованиях отечественных учёных: Н. Абдурахмоновой, Г. Аноркуловой, М. Ахмедова, Н. Г. Аловутдиновой, Н. У. Бикбоевой, А. Я. Бобомуродовой, М. Э. Джумаева, Э. Э. Джумаева, Т. У. Зиядовой, Х. Ибрагимова, П. Ибрагимова, О. Исмаилова, Н. Муслимова, У. А. Машариповой, Ш. У. Нуруллаевой, А. К. Нисанбаевой, О. Охунжоновой, Д. Рузиевой, М. Ж. Саидовой, А. Тешабоева, З. Г. Таджиевой, М. Усмонбоевой, Е. Я. Янгибоевой, Н. А. Касимовой, Н. А. Хамедовой, М. З. Хамдамовой, А. Р. Хамроева.

Кроме того, исследования по педагогическим и методическим аспектам развития творческого мышления, компетенций и способностей учащихся в общеобразовательной и высшей школах проводились в разное время профессорами М.Абдуллаевой, Б.С.Абдуллаевой, Р.Адизовой, З.Т.Нишановой, М.Куллахметовой, М.Саидовым, Ш.Ж.Юсуповой, Ш.С.Шариповым, Ч.Т.Шокировой.

Развитие творческого мышления у учащихся в странах Содружества Независимых Государств отражено в научных работах С.С.Бакулевской, И.Ф.Бородиной, М.С.Рябовой, Т.А.Сидорчук, Г.В.Терековой, Н.В.Толпекиной, Л.А.Устиновой-Барановой, К.Я.Хабибуллиным; Развитие творческого мышления у школьников отражено в научных работах А.Д.Новиковой, Н.Ю.Мельниковой, Н.Н.Мелентевой, Я.А.Колисниченко, Л.П.Матвеева, Г.Н.Германова, М.Шоликса.

Исследования проблем развития творческого мышления проводились за рубежом Ж.Гилфордом, Р.Штернбергом, Э.П.Торрансом, а также П.Сяо Сзе, Ван Линем, Чан Дык Няном, Ф.Луларом.

Например, результаты TIMSS и PIRLS также указывают на необходимость развития не только теоретических знаний, но и аналитических и творческих навыков мышления учащихся.

В этой связи вопросы совершенствования методологии развития творческого мышления будущих учителей начальной школы на основе современных образовательных программ изучены недостаточно.

Связь исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, где была выполнена диссертация. Диссертационное исследование выполнено в рамках практического проекта по теме «Практические механизмы и технологии использования современных педагогических подходов в повышении качества образования» № FZ-214/0001278 плана научных работ Кокандского государственного университета.

Цель исследования: разработаны научно-методические рекомендации по совершенствованию методики развития креативной деятельности будущих учителей начальных классов на основе международных программ оценки качества образования.

Задачи исследования:

изучение и анализ структурных компонентов развития творческой деятельности у будущих учителей начальной школы на основе международных программ оценивания;

усовершенствование методических подходов к развитию творческой деятельности у будущих учителей начальной школы на основе международных программ оценки с учетом дидактических принципов;

усовершенствование методической модели развития творческой деятельности у будущих учителей начальной школы на основе международных программ оценивания;

усовершенствование методического обеспечения развития творческой деятельности у будущих учителей начальной школы на основе международных программ оценивания.

Объект исследования: процесс развития креативной деятельности будущих учителей начальных классов на основе международных программ оценивания. В опытно-экспериментальной работе приняли участие 743 студента направления «Начальное образование» Кокандского государственного университета, Андижанского государственного педагогического института и Навоийского государственного университета.

Предметом исследования являются содержание, формы, методы и средства развития творческой деятельности будущих учителей начальных классов на основе международных программ оценивания.

Методы исследования. В процессе исследования использовались методы сравнительного изучения и анализа данных по проблеме в философской, психологической и педагогической литературе; изучения государственных образовательных стандартов, учебных планов и программ, учебников и учебно-методических пособий; социально-педагогические методы (наблюдение, беседа, анкетирование, опрос, тестирование); педагогический опытно-экспериментальный метод; методы математико-статистической обработки и обобщения результатов.

Научная новизна исследования состоит в следующем:

уточнены, систематизированы и проанализированы структурные компоненты развития креативной деятельности будущих учителей начальных классов на основе международных программ оценивания (интеллектуальный, мотивационный, аналитический, сравнительный и творческо-практический компоненты);

в процессе преподавания дисциплины «Международная система оценивания» методика развития креативной деятельности будущих учителей начальных классов усовершенствована на основе дидактических принципов обучения (научности, воспитывающего характера, наглядности, деятельностной направленности, проблемности, творческого поиска, индивидуальности и рефлексии) посредством интеграции личностно-ориентированного, проблемного и креативного обучения, информационно-коммуникационных технологий, проектирования, работы в группах, дидактических игр, методов SCAMPER, Brainwriting, Maker Education и дискуссионных методов;

усовершенствован практический механизм реализации мотивационного, интеллектуального, педагогического и индивидуализированного подходов, а также обеспечения приоритетности позитивной образовательной среды на основе усовершенствованной методической модели, включающей компетентностный, интегративный и цифровой компоненты и направленной на развитие креативной деятельности будущих учителей начальных классов на основе международных программ оценивания;

обогащены и усовершенствованы дидактические средства и методическое обеспечение, направленные на развитие креативной деятельности будущих учителей начальных классов на основе международных программ оценивания, в том числе мобильное приложение, содержащее задания PIRLS и TIMSS для самостоятельной работы.

Практические результаты исследования заключаются в следующем:

методические основы развития креативной деятельности будущих учителей начальных классов разработаны для использования на лекционных, практических и семинарских занятиях по дисциплине «Международная система оценивания», предусмотренной учебным планом высшего образовательного учреждения, а также в профессиональной деятельности будущих учителей;

для студентов направления «Начальное образование» разработан и внедрен в образовательный процесс учебник «Международная система оценивания», направленный на развитие креативной деятельности;

разработаны и внедрены в опытно-экспериментальный процесс методические рекомендации по организации теоретических и практических занятий по дисциплине «Международная система оценивания» с использованием педагогических технологий для развития креативного мышления будущих учителей начальных классов;

создано и внедрено в образовательную практику мобильное приложение, содержащее задания, соответствующие международным программам оценивания и направленные на развитие креативной деятельности будущих учителей начальных классов посредством совершенствования содержания и цифровизации дисциплины «Международная система оценивания».

Достоверность результатов исследования обусловлена научно-методическим обоснованием применяемого подхода, методов, получением теоретической информации из официальных источников, результативностью представленных анализов, опытно-экспериментальных работ, выявленных средствами математико-статистических методов, внедрением в практику выводов, предложений и рекомендаций, а также подтверждением компетентными организациями.

Теоретическая и практическая значимость результатов исследования.

Теоретически обоснованы педагогические условия развития креативной деятельности будущих учителей начальных классов в высших образовательных учреждениях. На основе совершенствования дисциплины «Международная система оценивания» с использованием личностно-ориентированного подхода предложены критерии развития креативности будущих учителей начальных классов и показатели, определяющие уровень ее развития.

Практическая значимость исследования заключается в обогащении методики развития креативной деятельности будущих учителей начальных классов на основе личностно-ориентированного подхода, разработке учебных вопросов, программного обеспечения и открытых образовательных ресурсов, а также дидактических материалов и рекомендаций по их применению в высших образовательных учреждениях.

Внедрение результатов исследования. На основе результатов исследования по совершенствованию методики развития креативной деятельности будущих учителей начальных классов на основе международных программ оценивания:

уточненные структурные компоненты развития креативной деятельности будущих учителей начальных классов (интеллектуальный, мотивационный, аналитический, сравнительный и творческо-практический компоненты) на

основе международных программ оценивания внедрены в содержание учебника «Международная система оценивания» (разрешение на издание № 2580-3769-e073-c999-5d31-7606-6343 на основании приказа Министерства высшего образования, науки и инноваций от 16 апреля 2026 года № 273205854). В результате уточнены структурные компоненты развития креативной деятельности будущих учителей начальных классов;

рекомендации по совершенствованию методики развития креативной деятельности студентов в процессе преподавания дисциплины «Международная система оценивания» на основе методов SCAMPER, Brainwriting, Maker Education, адаптации образовательных технологий к содержанию обучения, проблемного и личностно-ориентированного обучения внедрены в содержание учебника «Международная система оценивания» (разрешение на издание № 2580-3769-e073-c999-5d31-7606-6343 на основании приказа Министерства высшего образования, науки и инноваций от 16 апреля 2026 года № 273205854). В результате обеспечена взаимосвязь дидактических принципов при развитии креативной деятельности будущих учителей начальных классов;

предложения и рекомендации по реализации мотивационного, интеллектуального, педагогического и индивидуализированного подходов и обеспечению приоритетности позитивной образовательной среды на основе методической модели развития креативной деятельности студентов (целевой-компетентностный компонент, психолого-педагогические условия, мотивационный, деятельностный, творческий компоненты, анализ и рефлексия), предусматривающей самостоятельную и творческую работу, предложение новых решений, объединение идей и предположений по общей теме и стимулирование открытого мышления, использовались в качестве методического источника при освещении раздела по расширению научно-технического мировоззрения девушек из малообеспеченных семей в программе проекта «RoboGirls», реализованного в 2022–2023 годах в Кокандском государственном педагогическом институте (справка Кокандского государственного педагогического института от 6 марта 2024 года № 384/04). В результате усовершенствована методическая модель развития креативной деятельности студентов;

